



SAMARQAND VILOYATI BULUNG'UR TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 1-mart

54-7-93-Q/25

Bulung'ur tuman hokimligi

**Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 25-fevraldagagi “2025-yilda Samarqand viloyatida Olimpiya va Paralimpiya harakati, sport ta’limi va seleksiya hamda ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish va aholi jismoniy faolligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risida”gi
64-7-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunlariga muvofiq, shuningdek, tumanda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, aholini jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish, hududiy sport federatsiyalari (uyushmalar) faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, olimpiya va paralimpiya sport turlarini rivojlantirish orqali nufuzli xalqaro sport musobaqalari, jumladan, Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga sportchilarimizning har tomonlama muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 25-fevraldagagi “2025-yilda Samarqand viloyatida Olimpiya va Paralimpiya harakati, sport ta’limi va seleksiya hamda ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish va aholi jismoniy faolligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risida”gi 64-7-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Olimpiya va Paralimpiya harakati, sport ta’limi va seleksiya hamda ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish va aholi jismoniy faolligini oshirish yuzasidan tumanda 2025-yilda amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha “yo‘l xaritasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Samarqand viloyati hokimining mazkur qarori bilan:

Samarqand viloyatida 2025-yilda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo‘yicha erishiladigan maqsadli ko‘rsatkichlar 2-ilovaga muvofiq;

2025-yilda hududiy sport federatsiyalari (uyushmalar) bilan “sport qabullari” o‘tkazish bo‘yicha reja-jadvali 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Buriboyev), tuman sport maktabi (Sh.Mamatkulov) tegishli bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda ilovalarda belgilangan topshirqlarni belgilangan muddatlarda ijrosini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Buriboyev), tuman sport maktabi (Sh.Mamatkulov), Yoshlar ishlari tuman bo‘limi (Z.Boxodirov)lar:

jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy shug‘ullanadigan aholi ulushini joriy yilda kamida 30 foizga yetkazish;

tuman yoshlarining sportga qiziqishlarini kuchaytirish maqsadida tajribali va taniqli sportchilar ishtirokida uchrashuvlar tashkil etish tizimini yo‘lga qo‘yish;

olimpiya va paralimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik ko‘rayotgan sportchilarning ijtimoiy-maishiy va moddiy ta’minotini yaxshilash bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirib borish;

xususiy sport klublari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Buriboyev), tuman sport maktabi (Sh.Mamatkulov) mazkur qarorda va Yo‘l xaritasida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi bo‘yicha har oyda bir marotaba tuman hokimi huzurida tuman sport maktabi, sport federatsiyalari ishtirokida muhokama qilib borsin.

7. Tuman hokimligi matbuot xizmati (A.Jabborov), “Bulung‘ur hayoti” gazetasi (G‘.O‘rolov)lar mazkur qarorni “Bulung‘ur hayoti” gazetasida e’lon qilinishini hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Buriboyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



S.Astonov

Bulung‘ur tuman hokimining
2025-yil 1-martdagি
54-7-93-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Olimpiya va Paralimpiya harakati, sport ta’limi va seleksiya hamda ommaviy sportni yangi bosqichga olib
chiqish va aholining jismoniy faolligini oshirish yuzasidan tumanda 2025-yilda amalga oshiriladigan ishlar
bo‘yicha
“YO‘L XARITASI”**

T/r	Samaradorlik ko‘rsatkichlari	Chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyaviy manbasi	Mas’ul ijrochilar
Sportda seleksiya va ta’lim tizimini takomillashtirish.					
1.	Hududlarda sport bilan muntazam shug‘ullanuvchi yoshlar sonini oshirish, sport maktablaridagi o‘quvchi-sportchilarni sonini oshirish.	<p>2. Ommaviy sport musobaqalarida natija ko‘rsatgan iqtidorli yoshlarni sport maktablariga seleksiya qilish.</p> <p>3. Sport-ta’lim muassasalarida sportchilarni mashg‘ulotlardagi davomatini “Face ID” tizimi orqali yuritilishini to‘liq yo‘lga qo‘yish.</p>	yil yakuniga qadar I chorakda II chorakda III chorakda IV chorakda		Tuman sport maktabi (<i>Sh.Mamatkulov</i>), tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (<i>O.Jangirov</i>), Yoshlar ishlari tuman bo‘limi (<i>Z.Boxodirov</i>)

4.	<p>Sport maktabida sport bilan shug‘ullanayotgan sportchi-o‘quvchilarini sportchi pasporti bilan ta’minalashni 100 foizga yetkazish.</p>	<p>1. Sportchi pasporti oladigan o‘quvchilarning ro‘yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Shakllantirilgan ro‘yxat asosida sportchi o‘quvchilarni sportchi pasporti bilan ta’minalash.</p>	2025-yil mart yil yakuniga qadar		Tuman sport maktabi (Sh.Mamatkulov)
5.	<p>Sport maktabida Adaptiv sport turlari bilan shug‘ullanuvchi nogironligi bo‘lgan shaxslar qamrovini kamida 35 foizga oshirish.</p>	<p>1. sport maktabida 1 tadan sport turlari bo‘yicha trenerlarni o‘qitib, ular orqali tegishli adaptiv sport guruhlarida nogironligi bo‘lgan shaxslarni qamrab olish.</p> <p>2. Sport maktabida paralimpiya sport guruhini tashkil etish.</p> <p>3. Sport maktabini adaptiv sport bilan shug‘ullantirish uchun zarur bo‘lgan sport inventarlari bilan ta’minalash.</p> <p>4. Adaptiv sport turlari bilan shug‘ullanuvchi nogironligi bo‘lgan shaxslar qamrovini oshirish.</p>	2025-yil mart 2025-yil Sentabr-oktabr		“Inson” ijtimoiy xizmatlari markazi (O.Sattorov), tuman sport maktabi (Sh.Mamatkulov)
6.	<p>Xususiy sport klublari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.</p>	<p>1. Mavjud sport klublarini xatlovdan o‘tkazish va ularning ma’lumotlar bazasini yaratish.</p> <p>2. Xususiy sport klublari faoliyatini kengaytirish va ularni</p>	2025-yil mart 2025-yil aprel-iyul		Tuman sport maktabi (Sh.Mamatkulov)

		davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha targ'ibot ishlarini tashkil etish. 3. Xususiy sport klublari faoliyatini tashkil etishga ko'maklashish.	belgilangan muddatlarda		
7.	Tuman kesimida sport turlari bo'yicha 160 ta sport tadbirlarini tashkil qilish.	1. Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining tuman kalendar rejalarini shakllantirish va tasdiqlash. 2. Sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan sport musobaqalarini yuqori saviyada tashkil qilish va o'tkazish. Bunda, 20 ta; 50 ta; 50 ta; 40 ta.	yil yakuniga qadar I chorakda II chorakda III chorakda IV chorakda	Ijrochilar mablag'lari	Tuman sport maktabi (Sh.Mamatkulov)
8.	Tumanning ixtisoslashuviga ko'ra sport ta'lim muassasasida aholi soniga nisbatan olimpiya sport turlarini ko'paytirish.	1. Sport ta'lim muassasalaridagi olimpiya sport turlarini xatlovdan o'tkazish. 2. Xatlov natijasida aholi soniga nisbatan olimpiya sport turlari kam ochilgan sport turlari bo'yicha bo'limlarni ochish choratadbirlarni belgilash. 3. Sport maktabida olimpiya	yil yakuniga qadar		Tuman sport maktabi (Sh.Mamatkulov)

		sport turlari bo'yicha sonini 20 taga ko'paytirish.			
Ommaviy sportni rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish.					
9.	Jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy shug'ullanadigan aholi ulushini kamida 30 foizga yetkazish.	<p>1. Joylarda aholining jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.</p> <p>2. Mahallalarda aholining ommaviy sport bilan shug'ullanishlari uchun moddiy-texnik bazani mustahkamlash.</p> <p>3. Umumta'lim, professional va oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilar o'rtaida ommaviy sport turlariga bosqichma-bosqich keng jalg qilish maqsadida targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish.</p> <p>Joylarda ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish orqali yil yakuniga qadar 61 ming nafar aholini qamrab olish.</p>	yil yakuniga qadar	Ijrochilar mablag'lari	Tuman hokimining o'ribbosari (A.Buriboyev), tuman sport maktabi (Sh.Mamatkulov) bo'lim va tashkilotlar rahbarlari
10.	Nogironligi bo'lgan shaxslarni ommaviy sport musobaqalariga keng jalg qilish.	<p>1. Sport musobaqalarida ishtirok etish istagi mavjud nogironligi bo'lgan yoshlar ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Adaptiv sport turlari bo'yicha ommaviy sport musobaqalarini</p>	2025-yil mart yil yakuniga qadar	Ijrochilar mablag'lari	"Inson" ijtimoiy xizmatlari markazi (O.Sattorov), tuman sport maktabi (Sh.Mamatkulov)

		tashkil etish hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarni keng jalg etish.			
11.	Tumanda jismoniy tayyorgarlik sport sinovlarini o‘tkazish.	<p>1. Sport sinovlarini topshirish bo‘yicha raqamlashtirilgan ariza berish tizimi yuzasidan targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish.</p> <p>2. Sport sinovlarini topshirib, tegishli daraja olgan fuqarolarni munosib rag‘batlantirish.</p>	yil yakuniga qadar		Tuman sport maktabi <i>(Sh.Mamatkulov)</i> bo‘lim va tashkilotlar rahbarlari
12.	Mahallalarda ommaviy jismoniy faollik tadbirlarini tizimli yo‘lga qo‘yish.	<p>1. Haftaning har shanbasi “Jismoniy tarbiya va sport kuni” va dam olish kunlarida mahallardagi istirohat bog‘i va sport inshootlarida aholini sog‘lomlashtirishga qaratilgan jismoniy tarbiya tadbirlarini o‘tkazish.</p> <p>2. Har bir mahallada sport tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishga mas’ullar ro‘yxati hamda tadbirlar manzillarini tasdiqlash.</p> <p>3. Mahalla aholisini sog‘lomlashtirish tadbirlarida faol ishtirokini ta’minlash.</p>	<p>yil yakuniga qadar har haftada</p> <p>I chorakda II chorakda III chorakda IV chorakda fevral</p>	Ijrochilar mablag‘lari	Tuman sport maktabi <i>(Sh.Mamatkulov)</i> O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi <i>(X.Egamberdiyev)</i>
13.	Idora va tashkilotlar, xo‘jalik birlashmalari, davlat ishtirokidagi	1. Korxona tashkilotlari davlat ishtirokidagi tijorat banklari va bo‘lim rahbarlari va xodimlarini	yil yakuniga qadar	Ijrochilar mablag‘lari	Tuman hokimining o‘rinbosarlari <i>(Sh.Ibragimov,</i>

	<p>tijorat banklari va korxonalar mehnat jamoasining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faollik darajasini oshirish maqsadida haftaning har bir kunida sohalar kesimida tashkilotlar xodimlarining ommaviy sport bilan shug‘ullanishini tashkil etish .</p>	<p>jamoaviy sport turlariga jalb qilish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish.</p> <p>2. Ish vaqtidan so‘ng belgilangan kunlarda (haftada kamida bir marta) barcha bo‘lim tashkilotlar, xo‘jalik birlashmalari, davlat ishtirokidagi tijorat banklari va korxonalar mehnat jamoasining jamoaviy sport turlari bilan shug‘ullanishini tashkil qilish tavsiya etilsin.</p> <p>3. Xodimlar o‘rtasida jamoaviy sport turlari bo‘yicha “Rahbar kubogi”, “Hokim kubogi” musobaqalarini tashkil etish hamda bu orqali rahbar xodimlarni jamoaviy sport turlari bilan qamrab olish.</p>	<p>I chorakda II chorakda III chorakda IV chorakda</p>	<p><i>A.Buriboyev, N.Sanaqulov, N.Mamadiyarova, A.Rizayev, Sh.Razzoqov), tuman sport maktabi (Sh.Mamatkulov), O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (X.Egamberdiyev), bo‘lim va tashkilotlar rahbarlari</i></p>
--	---	--	--	--

Bulung‘ur tuman hokimining
2025-yil 1-martdagি
54-7-93-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 25-fevraldagi 64-7-0-Q/25-sonli qarori bilan tasdiqlangan

Samarqand viloyatida 2025-yilda erishiladigan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo‘yicha

MAQSADLI KO'RSATKICHLARI

T/r	Ko'rsatkich nomi	O'lclov birligi	2024-yil (fakt)	2025-yil (reja)	Shu jumladan				
					I. Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish				
1.	Sport turlari bo'yicha unvonli (sport ustasi, xalqaro toifadagi sport ustasi) yangi sportchilarni tayyorlash	nafar		13		3	6		4
2.	Sportchilarning o'quv-mashg'ulot yig'inlari va nufuzli musobaqalarda ishtiroki bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish.	mln so'm		1 700	300	500	500		400
3.	Terma jamoalar tayyorgarlik olib boradigan sport inshootlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash	ta		1				1	
4.	Sport turlari bo'yicha "Yangi O'zbekiston Olimpiya cho'qqilar" sport musobaqalarining mintaqaviy va hududiy bosqichlarini tashkil etish va o'tkazish	ta		97	17	19	21		40

5.	Sport ta'lim muassasalarida muntazam shug'ullanuvchi yoshlar kontingentini oshirish	ming nafar	48	50	10	20	20	10
6.	Sport maktablari sportchi-o'quvchilarini davomatini "Face ID" tizimi orqali amalga oshirishni to'liq yo'lga qo'yish	foiz	49,4	100	65	80	90	100
7.	Ommaviy sport musobaqalaridan iqtidorli sportchi yoshlarni sport mакtablariga seleksiya qilish	nafar		6 500	1 000	2 200	2 000	1300
8.	Adaptiv sport turlari bilan muntazam shug'ullanuvchi nogironligi bo'lgan shaxslar qamrovini oshirish	nafar	612	1 512	300	500	462	250
9.	Sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport mакtablari infratuzilmasini yaxshilash	ta		4		2	2	
10.	Sport sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirish va qayta tayyorlash	nafar	350	411	150	150	55	56
11.	Mahallalarda zamonaviy yangi xususiy sport klublarini tashkil etish	ta		170		56	58	56
12.	Oliy ta'lim muassasalarida belgilan sport turlari bo'yicha sport klublari faoliyatini yo'lga qo'yish	ta		33		13	20	
13.	Olimpiya va Paralimpiya markazi tomonidan milliy terma jamoalarga sportchi yetkazib berish ko'rsatkichini oshirish	foiz	34	38		35	36	38

14.	Sport ta'lim muassasalarini bosqichmabosqich o‘zini-o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish orqali davlat budgeti mablag‘larini iqtisod qilish	mlrd so‘m	1,5	1,8	0,2	0,6	0,6	0,4
-----	---	-----------	-----	-----	-----	-----	-----	-----

III. Ommaviy sportni rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish

15.	Ommaviy sport musobaqalaridagi aholi qamrovini kengaytirish	ming nafar	1 184	1 283	384	427	299	171
16.	Nogironligi bo‘lgan shaxslarni adaptiv sport turlari bo‘yicha ommaviy sportga jalg qilish	nafar	2 687	5 069	828	1 141	1 239	1 861
17.	Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga jalg qilingan aholi ulushini oshirish	foiz	28	30	5	15	25	30
18.	Aholidan maxsus talablar asosida sport sinovlarini qabul qilish	nafar	481 000	509 799	51 480	205 920	180 180	72 219
19.	Olis va chekka hududlardagi mahallalarda namunaviy tipdagи sport maydonchalarini barpo etish	ta	32	24			8	16
20.	Davlat budjeti mablag‘lari samaradorligini baholash yuzasidan sport tashkilotlarini audit nazoratidan o‘tkazish	ta	10	10	3	2	3	2

Bulung‘ur tuman hokimining
2025-yil 1-martdagি
54-7-93-Q/25-son qaroriga
3-ilova

Samarqand viloyati hokimining
2025-yil 25-fevraldagи 64-7-0-Q/25-sonli
qarori bilan tasdiqlangan

**Samarqand viloyati hokimi tomonidan 2025-yilda Olimpiya harakatini rivojlantirish yuzasidan sport sohasi
vakillari bilan “sport qabullari”ni o‘tkazish**

REJA-JADVALI

T/r	Uchrashuv joyi	Uchrashuv vaqtি	Ishtirok etadigan kontingent	Uchrashuv tashkil etishga mas’ullar
1	Samarqand olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi	2025-yil mart	Viloyat ixtisoslashtirilgan sport maktab direktorlari, direktor o‘rinbosarlari, Samarqand va Toyloq Olimpiya va Paralimpiya sport turlari tayyorlash markazi direktori, sport ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, bosh trenerlari, Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha federatsiya (assotsiatsiya) rahbarlari, homiy tashkilot vakillari.	Viloyat hokimi o‘rinbosari (X.Tuxtayev), viloyat Sport boshqarmasi (Sh.Ro‘ziyev)
2	Sport yakka kurashi bo‘yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabi	2025-yil aprel	Viloyat ixtisoslashtirilgan sport maktab direktorlari, direktor o‘rinbosarlari, Samarqand va Toyloq Olimpiya va Paralimpiya	Viloyat hokimi o‘rinbosari (X.Tuxtayev), viloyat Sport boshqarmasi

			sport turlari tayyorlash markazi direktori, sport ishlari bo'yicha direktor o'rribbosari, bosh trenerlari, Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo'yicha federatsiya (assotsiatsiya) rahbarlari, homiy tashkilot vakili.	(Sh.Ro'ziyev), Samarqand shahri hokimi (F.Umarov)
3	Toyloq Olimpiya va Paralimpiya sport turlari tayyorlash markazi	2025-yil may	Viloyat ixtisoslashtirilgan sport maktab direktorlari, direktor o'rribbosarlari, Toyloq Olimpiya va Paralimpiya sport turlari tayyorlash markazi direktori, sport ishlari bo'yicha direktor o'rribbosari, bosh trenerlari, Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo'yicha federatsiya (assotsiatsiya) rahbarlari, homiy tashkilot vakili.	Viloyat hokimi o'rribbosari (X.Tuxtayev), viloyat Sport boshqarmasi (Sh.Ro'ziyev), Toyloq tumani hokimligi (B.Bobonazarov)
4	Kattaqo'rg'on shahar sport maktabi	2025-yil iyun	Viloyat ixtisoslashtirilgan sport maktab direktorlari, direktor o'rribbosarlari, Samarqand va Toyloq Olimpiya va Paralimpiya sport turlari tayyorlash markazi direktori, sport ishlari bo'yicha direktor o'rribbosari, bosh trenerlari, Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo'yicha federatsiya (assotsiatsiya) rahbarlari, homiy tashkilot vakili.	Viloyat hokimi o'rribbosari (X.Tuxtayev), viloyat Sport boshqarmasi (Sh.Ro'ziyev) Kattaqo'rg'on shahri hokimligi (G.Alimova)

5	Ishtixon tumani sport maktabi	2025-yil avgust	Viloyat ixtisoslashtirilgan sport maktab direktorlari, direktor o‘rinbosarlari, Samarqand va Toyloq Olimpiya va Paralimpiya sport turlari tayyorlash markazi direktori, sport ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, bosh trenerlari, Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha federatsiya (assotsiatsiya) rahbarlari, homiy tashkilot	Viloyat hokimi o‘rinbosari (X.Tuxtayev), viloyat Sport boshqarmasi (Sh.Ro‘ziyev) Ishtixon tumani hokimligi (F.Ro‘ziyev)
6	Payariq tumani 1-son sport maktabi	2025-yil sentabr	Viloyat ixtisoslashtirilgan sport maktab direktorlari, direktor o‘rinbosarlari, Samarqand va Toyloq Olimpiya va Paralimpiya sport turlari tayyorlash markazi direktori, sport ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, bosh trenerlari, Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha federatsiya (assotsiatsiya) rahbarlari, homiy tashkilot vakili.	Viloyat hokimi o‘rinbosari (X.Tuxtayev), viloyat Sport boshqarmasi (Sh.Ro‘ziyev) Payariq tumani hokimligi (I.Jabbarov)
7	Bulung‘ur tumani sport maktabi	2025-yil oktabr	Viloyat ixtisoslashtirilgan sport maktab direktorlari, direktor o‘rinbosarlari, Samarqand va Toyloq Olimpiya va Paralimpiya sport	Viloyat hokimi o‘rinbosari (X.Tuxtayev), viloyat Sport boshqarmasi (Sh.Ro‘ziyev),

			turlari tayyorlash markazi direktori, sport ishlari bo‘yicha direktor o‘rribosari, bosh trenerlari, Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha federatsiya (assotsiatsiya) rahbarlari, homiy tashkilot vakili.	Bulung‘ur tumani hokimligi (S.Astonov)
8	Urgut tumani 1- son sport maktabi	2025-yil noyabr	Viloyat ixtisoslashtirilgan sport maktab direktorlari, direktor o‘rribosarlari, Samarqand va Toyloq Olimpiya va Paralimpiya sport turlari tayyorlash markazi direktori, sport ishlari bo‘yicha direktor o‘rribosari, bosh trenerlari, Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha federatsiya (assotsiatsiya) rahbarlari, homiy tashkilot vakili.	Viloyat hokimi o‘rribosari (X.Tuxtayev), viloyat Sport boshqarmasi (Sh.Ro‘ziyev), Urgut tumani hokimligi (B.Jabborov)
9	Paxtachi tumani sport maktabi	2025-yil dekabr	Viloyat ixtisoslashtirilgan sport maktab direktorlari, direktor o‘rribosarlari, Samarqand va Toyloq Olimpiya va Paralimpiya sport turlari tayyorlash markazi direktori, sport ishlari bo‘yicha direktor o‘rribosari, bosh trenerlari, Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha federatsiya	Viloyat hokimi o‘rribosari (X.Tuxtayev), viloyat Sport boshqarmasi (Sh.Ro‘ziyev), Paxtachi tumani hokimligi (M.Xamdamov)

			(assotsiatsiya) rahbarlari, homiy tashkilot vakili.	
--	--	--	--	--